

Tikuvchilikda zamonaviy jihozlar tanlash - sifatli buyum ishlab chiqarishning asosiy omili

Gulchexra Shuxratovna Abdullayeva
gulchexra.2011@mail.ru
Buxoro muhandislik-texnologiya instituti

Annotatsiya: Tikuv buyumlarini sifatli ishlab chiqarishda ishlatiladigan zamonaviy texnologiyalar va tikuvchilik jihozlari, ya'ni mashina va uskunalarni tanlash juda muhim. Yuqori sifatli tikuv uskunalari ishlab chiqarishni takomillashtirishning ajralmas qismi hisoblanadi.

Kalit so'zlar: jihoz, mexanizm, asbob-uskuna, baxyaqator, tikuv mashinasi, detal, furnitura, mexanizatsiya, avtomat, lapka

Choosing modern equipment in sewing is the main factor of producing a quality product

Gulchekhira Shukhratovna Abdullaeva
gulchexra.2011@mail.ru
Bukhara Engineering and Technology Institute

Abstract: It is very important to choose modern technologies and sewing equipment, that is, machines and equipment used in the quality production of sewing products. High-quality sewing equipment is an integral part of improving production.

Keywords: device, mechanism, equipment, machine, sewing machine, detail, fittings, mechanization, machine, machine

Tikish usulini tanlashdan oldin birinchi navbatda tanlangan kiyim modeliga muvofiq ishlab chiqarishda qo'llanadigan ilg'or usullar o'rganiladi. Kiyim modelini texnologik ishlov berishda barcha tartib diqqat bilan nazorat qilingan mehnat sarfini kamaytirish va model sifatini yaxshilash uchun kerakli jihozlar hamda tikish uslubi tanlanadi.

Asbob-uskuna va tikish usullarini mehnat unumdorligi va buyum sifat darajasini hisobga olgan holda tanlandi.

Tikuv mashinalari konstruksiyasi, tashqi ko'rinishi va kinematikasi jihatidan juda xilma-xildir. Igna ipi va moki (chalishtirgich) ipining chalishishiga qarab moki baxyaqatorli mashinalar va zanjirsimon tikuv mashinalarga bo'linadi.

Mashinalar vazifasiga ko'ra quyidagi gruppalariga bo'linadi: moki baxyali to'g'ri baxyaqator mashinalar; bir ipli zanjirsimon baxyali to'g'ri baxyaqator mashinalar; ko'p ipli zanjirsimon baxyali to'g'ri baxyaqator mashinalar; moki baxyali siniq baxyaqator mashinalar; petlya yo'rmaydigan yarim avtomat mashinalar; yo'rmash mashinalari; tugma va boshqa furnituralarni qadaydigan, operatsiyalar talonini chatadigan, puxtalaydigan va kalta choklarni tikadigan yarim avtomat mashinalar; yashirin baxyali mashinalar.

Chet el firmalari mashinalar sinfini belgilashda ko'proq raqamlardan, kamroq harflardan, mashina variantlarini belgilashda raqamlardan yoki harflardan foydalanib, yoniga ishlab chiqaradigan firma yoki korxonaning nomini qo'shib yoziladi (masalan, Yaponiya «Juki» firmasining MO-816 kl.mashinasi).

Keyingi vaqtlarda ilgari chiqarilgan mashinalarning sinfini saqlab qolishga, ularning variantlariga esa mashinaning 2 raqamidan boshlangan tartib nomeri qo'shilgan sinf nomeridan iborat belgilar berishga qaror qilindi. Orsha «Legmash» zavodi (OZLM) ham o'z mashinalariga shu yo'sinda quyidagicha belgilar qo'yadi: moki baxyali to'g'ri baxyaqator yuritadigan 97-A kl.mashinasi; ostki gazlamadan salqi hosil qiladigan 297 kl. mashinasi; andazalarni qirqishga mo'ljallangan pichoqli 397-M kl. mashinasi; materiallarni bir baxya uzunlikda suradigan 697 kl, mashinasi va hakazo. Rostov-Don «Legmash»zavodi (RZLM)tikish va yo'rmashga mo'ljallangan mashinalar ishlab chiqaradi va ularni bajariladigan ishning xarakteriga, shuningdek, vazifasiga ko'ra raqam va harflar bilan belgilab sinfifikatsiyalaydi (masalan,408-M, 408-AEM, 508-M kl. va hokazo). Hozirgi kunda O'zbekiston korxonalarida Germaniya va Yaponiya firmalarining tikuv mashinalari va boshqa texnologik uskunalari ham ishlatiladi. Butun bir texnologik protsess uchun chiqariladigan tikuvchilik uskunalari korxonaga aniq uchastkasiga (xom ashyo va furnitura skladlariga, tayyorlash-bichish uchastkalariga, baza uchaskalariga, tayyor maxsulot omboriga yaroqliligiga qarab va mexanizatsiyalashtrish darajasiga (Noavtamatik, yarim avtamatik va avtamatik) turlarga bo'linadi.

Kiyimlarni ishlab chiqarish usullari, asbob uskunalarni tanlash bilan bog'liq. Tanlangan modellarni ishlab chiqarishda tikish tartibi belgilanadi, shundan kelib chiqib, korxonadagi sharoitiga qarab tikuv sexiga asbob-uskunalar joylashtiriladi. Har bir operatsiya vaqtini tahlil qilib, ishlov berish uchun ketadigan vaqtni mashinaning kichik mexanizatsiyasi, hisobiga kamayadi. Ip uzishni, lapka ko'tarish va tushirish, avtomatlarni yo'lga qo'yish va hokazo.

Yangi kiyim detallarini birlashtirishda tikish sifatiga va mustahkamligiga e'tibor berish, kiyimning tashqi ko'rinishini yaxshilaydi, sifatini oshirib, ishlab chiqarishga ketgan vaqtni kamaytiradi. Tikuv mashinalari asosiy va qo'shimcha mexanizmlardan tashkil topgan bo'lib, detallarni to'g'ri birlashtirish, ularni bir-biriga to'g'ri ketishi, baxyaqator hosil qilish va boshqa bir qancha funksiyalar jarayonida mexanizmlarning

bir-biriga mos harakatlanishidan hosil bo'ladi. Gazlama xususiyatidan kelib chiqib ketma-ket ishlov berishni maxsus mashinalar yordamida parallel ishlov berish usuliga almashtirish natijasida ishlov berish uchun ketgan vaqt bir muncha qisqaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Тошева, Н. М. (2016). Неполадки в работе швейных машин и их устранение. Молодой ученый, (7), 181-183.
2. Турсунова, З. Н., Ражабова, Г. Ж., & Очилов, Ш. Б. (2020). Проектирование многоассортиментных гибких потоков в швейном производстве. In Всероссийская научно-практическая конференция «ДИСК-2020» (pp. 96-102).
3. Тошева, Н. М. (2016). Главная особенность плоскошовных машин, их строение и назначение. Молодой ученый, (7), 183-186.
4. Abdullayeva, G. S. (2023). TIKUVCHLIK SANOATIDA TEXNOLOGIK OQIM USULINING ASOSIY BOSQICHLARI. Scientific progress, 4(2), 378-381.
5. Хужаева, М. Б. (2023). KIYIMLARNI TIKISHDA INSON TANASI O'LCHAMLARINI OLISH USULLARI. Scientific progress, 4(3), 49-57.
6. Ражабова, Г. Ж., & Турсунова, Г. Ш. (2015). Виды челноков, их преимущества и недостатки. Молодой ученый, (9), 291-293.
7. Gulchekra, A. (2022). STUDY OF DYNAMIC ANTHROPOMETRY FOR MAKING CLOTHES FOR VARIOUS PURPOSES. Universum: технические науки, (2-7 (95)), 43-46.
8. Хо'Jayeva, М. В., & Hamroyeva, М. R. (2023). O'QITUVCHINING KASBIY FAOLIYATIDA PSIXOLOGIYANING AHAMIYATI. Scientific progress, 4(4), 70-73.
9. Shukhratovna, A. G., & Shukhratovna, A. S. (2023). DISTANCE EDUCATION PERSPECTIVES AND INNOVATIONS. Journal of new century innovations, 21(2), 97-99.
10. Abdullaeva, G. (2024). REVIEW OF DYNAMIC ANTHROPOMETRY AND THE POSSIBILITY OF ITS APPLICATION FOR DESIGNING ERGONOMIC CLOTHES. Interpretation and researches, 2(1 (23)).
11. Сайитова, У. С., & Темирова, Г. И. (2017). Конструктивные приемы трикотажной формы и элементы формообразования одежды. Вопросы науки и образования, (2 (3)), 37-39.
12. Sharofovna, T. G. (2021). Material Handling Mechanisms In The Sewing Machine. The American Journal of Applied sciences, 3(04), 285-291.